



LEGAL ISSUES ARISING IN AGRICULTURAL ENTERPRISES

Akmal Nabirayev

Independent researcher

Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Agriculture, land law, contracts, labor law, agriculture sector, land resources, legislation, contract violations, labor conditions, subsidies, digital technologies.

Received: 28.02.25

Accepted: 02.03.25

Published: 04.03.25

Abstract: This scientific article discusses the legal issues related to the agricultural activity in Uzbekistan and the ways to address them. The article focuses on the legal aspects of farming, land law, contracts, and labor law. Specifically, it analyzes the management of land resources, contract disputes in agricultural activities, the protection of labor rights, and the experiences of developed countries. The article draws on the land and labor law systems of Germany, France, and other developed countries as examples to propose recommendations for Uzbekistan. The article concludes with suggestions aimed at resolving the legal challenges facing Uzbekistan's agricultural sector, including improving land law, labor law, and contract law, optimizing the subsidy system, and applying digital technologies.

DEHQON XO‘JALIGIDA YUZAGA KELADIGAN HUQUQIY MUAMMOLAR

Akmal Nabirayev

mustaqil izlanuvchi

O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Dehqon xo‘jaligi, yer huquqi, shartnomalar, mehnat huquqi, qishloq xo‘jaligi, yer resurslari, qonunchilik, shartnoma buzilishi, mehnat sharoitlari, subsidiyalar, raqamli texnologiyalar.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekistonda dehqon xo‘jaligi faoliyatining huquqiy muammolari va ularni hal qilish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqolada dehqon xo‘jaligining huquqiy jihatlarini, yer huquqi, shartnomalar va mehnat huquqi masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, yer resurslarini boshqarish, qishloq xo‘jaligi faoliyatida yuzaga keladigan shartnoma

nizolari, mehnat huquqlarini himoya qilish va rivojlangan davlatlarning tajribalari tahlil etiladi. O'zbekiston qonunchiligiga tajriba sifatida Germaniya, Fransiya va boshqa rivojlangan davlatlarning yer va mehnat huquqi tizimlari misolida takliflar keltirilgan. Maqola, O'zbekiston dehqon xo'jaligi tizimini rivojlantirishda yuzaga keladigan huquqiy muammolarni hal qilishga qaratilgan takliflar bilan yakunlanadi, jumladan yer huquqi, mehnat huquqi va shartnoma huquqini takomillashtirish, subsidiyalar tizimini optimallashtirish va raqamli texnologiyalarni qo'llash taklif qilinadi.

ЮРИДИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ, ВОЗНИКАЮЩИЕ В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Акмал Набираев

Независимый исследователь

Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: сельское хозяйство, земельное право, контракты, трудовое право, сельскохозяйственный сектор, земельные ресурсы, законодательство, нарушения контрактов, условия труда, субсидии, цифровые технологии.

Аннотация: Эта научная статья посвящена юридическим вопросам, связанным с сельскохозяйственной деятельностью в Узбекистане, а также путям их решения. Статья фокусируется на юридических аспектах сельского хозяйства, земельного права, контрактов и трудового права. В частности, в ней рассматривается управление земельными ресурсами, споры по контрактам в сельскохозяйственной деятельности, защита трудовых прав, а также опыт развитых стран. В статье приводятся примеры земельных и трудовых правовых систем Германии, Франции и других развитых стран, с предложением рекомендаций для Узбекистана. В заключение статьи предлагаются рекомендации для решения юридических проблем сельского хозяйства Узбекистана, включая совершенствование земельного права, трудового права и контрактного права, оптимизацию системы субсидий и применение цифровых технологий.

Kirish: Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning holati va rivojlanishi turli omillarga, jumladan, ilmiy ta'minot, malakali tayyorgarlik va qonun hujjatlarini amalga oshirishga bog'liqdir. Yutuqqa erishish uchun dehqon xo'jaligi, yer, ekologiya, xalqaro va boshqa huquq

tarmoqlarining nazariy muammolariga fanlararo yondashuv, O'zbekiston qonunlari va xorijiy mamlakatlar qonunlarini taqqoslash, yuqori darajadagi huquqiy tadqiqotlar o'tkazish zarurdir.

Dehqon xo'jaligi, ya'ni qishloq xo'jaligi, O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi O'RQ-680-son Qonuni 3-moddasiga asosan, dehqon xo'jaligi meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining shaxsiy mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir. Bunda dehqon xo'jaligi tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kirib, yuridik shaxs tashkil etgan yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holda o'z faoliyatini bog'dorchilik va uzumchilikka yoki sabzavot va poliz ekinlarini yoki boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishga asoslangan holda olib boradi. Dehqon xo'jaligi faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki jamiyatning turmush tarzini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega va shu bilan birga, dehqon xo'jaligi faoliyati ko'plab huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada, dehqon xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan asosiy huquqiy masalalar va ularni hal qilish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism. Yer huquqi va uning buzilishi - Dehqon xo'jaligining asosiy resursi yer bo'lib, uning huquqiy muammolari eng ko'p uchraydigan masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 1-moddasiga asosan, yer umummilliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Yerga egalik qilish, uni ijaraga berish, yerdan foydalanish bilan bog'liq nizolar ko'plab huquqiy masalalarni keltirib chiqaradi. Masalan, qishloq xo'jaligida yerning noqonuniy ishlatilishi, yerning davlat yoki shaxsiy mulk bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan huquqiy nizolar tez-tez uchraydi.

O'zbekistonda yerga egalik qilish, uni ijaraga olish va foydalanish bilan bog'liq barcha huquqiy muammolarni hal qilish uchun yer resurslarini boshqaruvchi idoralar va qishloq xo'jaligi tashkilotlari o'rtasida samarali hamkorlik zarur. Bunday nizolarni hal qilish uchun mahalliy hukumat organlari va sud tizimi ishtirokida yechimlar topish lozim.

Shartnomalar va ularning bajarilishi - Dehqon xo'jaliklarida shartnomalar, ayniqsa, yer ijarasi, mahsulot sotish va boshqa fermerlik bitimlari tuzish muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu shartnomalar ko'pincha shartlarining buzilishi, moliyaviy majburiyatlarning bajarilmasligi va boshqa muammolarni keltirib chiqaradi. Misol uchun, fermerlar o'rtasida mahsulot sotish bo'yicha tuzilgan shartnomalar, ba'zan amalga oshirilmasligi yoki shartlar o'zgartirilishi mumkin. Shuningdek, hozirgi paytda amaliyotda ko'p uchrayotgan va dehqon xo'jaliklari tomonidan e'tirozlarga sabab bo'layotgan muammolardan biri bu - dehqon xo'jaliklari bilan klasterlar o'rtasida tuziladigan shartnomalarda dehqon xo'jaliklari tomonidan fyuchers shartnomasiga

muvofiq yetkazib berilishi lozim bo'lgan hajmdagi qishloq xo'jaligi mahsuloti yetkazib berilganda klasterlar tomonidan to'lov majburiyatlari o'z vaqtida bajarilmayapti.

Bu kabi huquqiy muammolarni hal qilish uchun shartnoma huquqining asosiy tamoyillari va qoidalariga amal qilish zarur. Fermerlar va boshqa qishloq xo'jaligi ishchilari uchun shartnoma tuzishning huquqiy asoslarini yaxshi bilish muhimdir hisoblanadi.

Mehnat huquqi - Dehqon xo'jaliklarida ishchilarning mehnat huquqlari va sharoitlari ko'plab huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 42-moddasiga muvofiq, har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanih huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi O'RQ-680-son Qonuni 15-moddasiga muvofiq, dehqon xo'jaligining faoliyati xo'jalik a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Dehqon xo'jaligining ixtisoslashuviga qarab, muayyan ishni bajarish uchun mehnat shartnomasi shartlari asosida boshqa shaxslar vaqtinchalik (mavsumiy) asosda jalb etilishi mumkin.

Ishchilarning mehnat shartnomalari, ish haqidagi masalalar va boshqa mehnat huquqi bo'yicha kelishmovchiliklar ko'pincha yuzaga keladi. Mehnat shartnomalarining imzolanishi, ish sharoitlari va mehnat huquqlarining himoyasi kabi masalalar fermer xo'jaliklarida dolzarb bo'lib qoladi.

Ishchilarni mehnat huquqlarini himoya qilish va ish sharoitlarini yaxshilash uchun samarali huquqiy nazorat va nazorat organlarining faoliyati muhimdir.

Rivojlangan davlatlar tajribasi: Dehqon xo'jaligi bilan bog'liq huquqiy muammolarni hal qilishda rivojlangan davlatlar tajribasi O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish uchun foydali bo'lishi mumkin. Har bir davlatda qishloq xo'jaligi sohasida yuzaga keladigan huquqiy muammolarni hal qilish uchun o'ziga xos yondashuvlar mavjud. Quyida rivojlangan davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonga tatbiq qilish mumkin bo'lgan jihatlar ko'rib chiqiladi.

Yer resurslarini boshqarish va huquqlarni himoya qilish - Yevropa Ittifoqi va AQShda yer resurslarini boshqarish tizimi yaxshi rivojlangan. Yevropa Ittifoqining ko'plab mamlakatlarida, xususan, Germaniya, Fransiya va Niderlandiya va shu kabi davlatlarda yer huquqi bo'yicha qat'iy va aniq qonunlar mavjud. Bu qonunlar yer resurslarini samarali taqsimlash, ularning foydalanilishi va mulk huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Germaniya va Fransiyada yerning ijarasi va foydalanish bo'yicha maxsus shartnomalar mavjud bo'lib, ular notarial tasdiqlash orqali rasmiylashtiriladi.

Mehnat huquqi va ishchilarning huquqlari - Yevropa davlatlarida, ayniqsa, Fransiya va Germaniyada qishloq xo'jaligi ishchilarining huquqlari himoya qilinadi. Ishchilar uchun mehnat sharoitlari va to'lovlari belgilangan, va mehnat kodeksiga rioya qilish majburiyati mavjud. Shu bilan birga, ularning ish sharoitlari va ijtimoiy kafolatlari yuksak darajada ta'minlanadi.

Takliflar: Xalqaro miqyosda mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning bu sohada olib borayotgan ishlari bilan qisman tanishib chiqib quyidagi takliflarni bermoqchiman.

1. O'zbekistonda yer huquqi bo'yicha qonunlarni takomillashtirish, xususan, yerning samarali va adolatli taqsimlanishi, foydalanilishi va ijaraga berilishi bo'yicha normativ hujjatlarni yangilash zarur. Yerga bo'lgan mulk huquqini himoya qilish uchun mustahkamlovchi qonunlar ishlab chiqish, shuningdek, yer ijarasi shartnomalarining majburiy huquqiy shakllari va tartiblarini belgilash lozim.

2. Mahsulot sotish va fermerlik shartnomalarini yuridik jihatdan mustahkamlash - Fermerlar o'rtasidagi mahsulot sotish va boshqa iqtisodiy shartnomalar huquqiy jihatdan yaxshilanishi kerak. Fermerlar o'rtasidagi bitimlar va shartnomalarning to'liq huquqiy kafolati bo'lishi, shartnoma majburiyatlari va ularni buzish holatlari bo'yicha aniq normativlar ishlab chiqilishi zarur. Bunda ayniqsa dehqonlar bilan klasterlar o'rtasida tuzilgan shartnomada klasterlar tomonidan majburiyatlarni to'liq yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, fuqarolik qonunchiligiga asosan tegishli tarzda to'lovini o'z vaqtida bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, to'lov majburiyatidan tashqari har bir kechiktirilgan kun uchun tegishli tarzda neustoykani ham undirish tartibini takomillashtirish, mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnomalarning buzilishi holatlariga qarshi jazolarni kuchaytirish, shuningdek, shartnomalarni amalga oshirishda yuridik yordamni yanada kengaytirish zarur.

3. Soliq va subsidiya tizimini optimallashtirish - Qishloq xo'jaligi sohasida soliqlar va subsidiya tizimini yanada optimallashtirish zarur. Qishloq xo'jaligi soliq rejimining yengillashishi, soliq imtiyozlari va subsidiya dasturlarining samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun tizimni qayta ko'rib chiqish hamda dehqonlarga subsidiya va imtiyozlarni olishda byurokratik to'siqlarni kamaytirish va ularni olish jarayonini soddalashtirish lozim.

4. Mehnat huquqi bo'yicha qonunlarni takomillashtirish - Qishloq xo'jaligidagi ishchilarning mehnat huquqlarini himoya qilish uchun yangi qonunlarni ishlab chiqish zarur. Dehqon xo'jaliklarida ishchilarning xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlari, haq to'lash tizimi va ijtimoiy kafolatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan qonunlar ishlab chiqilishi kerak. Qishloq xo'jaligi ishchilari uchun mehnat shartnomalari va mehnat huquqlarini himoya qilish bo'yicha ta'lim va huquqiy maslahatlarni kengaytirish zarur.

5. Shartnoma va nizolarni hal qilish mexanizmlarini rivojlantirish - Dehqon xo'jaligida yuzaga kelgan huquqiy nizolarni hal qilish mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Qishloq xo'jaligi

sohasidagi nizolarni hal qilishda maxsus arbitraj yoki alohida sud tizimlarini yaratish, shuningdek, sud tizimining samaradorligini oshirish uchun tezkor va arzon muhokama qilish tizimini joriy etish hamda fermerlar va ishchilar uchun huquqiy yordam ko'rsatish xizmatlarini kengaytirish, ularning huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish orqali nizolarni oldini olish kerak.

6. Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish - Qishloq xo'jaligi va yer resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni kengaytirish zarur. Qishloq xo'jaligi resurslarini boshqarish va monitoring qilish uchun raqamli platformalarni ishlab chiqish kerak. Mazkur tizim fermerlarga yerga bo'lgan huquqlarni boshqarishda yordam berishi va ularning faoliyatini osonlashtirishi mumkin. Qishloq xo'jaligi yerlariga oid barcha ma'lumotlarni raqamli formatda yig'ish va ularni umumiy reyestrda kiritish kerak.

Xulosa: Rivojlangan davlatlarning tajribalari O'zbekiston uchun dehqon xo'jaligi sohasidagi huquqiy muammolarni hal qilishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston qonunchiligiga tatbiq qilinadigan jihatlar yer resurslarini boshqarish, mehnat huquqlarini himoya qilish, subsidiyalar tizimini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish kabi muhim yo'nalishlarga e'tibor qaratilishi kerak. Rivojlangan davlatlar xususan, Germaniya, Fransiya va Niderlandiya kabi davlatlar tajribasini o'rganish va uning eng yaxshi jihatlarini amaliyotga joriy etish, O'zbekistonning dehqon xo'jaligi tizimini yanada samarali va barqaror rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, qonunchilik tizimini yanada takomillashtirish, dehqon xo'jaligi sohasida raqamli texnologiyalarni kengaytirish va huquqiy ta'limni rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligi sohasida yuzaga keladigan huquqiy nizolarni minimallashtirish mumkin.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni, 01.04.2021 yildagi O'RQ-680-son.
3. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 1-qism.
5. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son.
6. "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.12.2023 yildagi PF-205-son.
7. https://www.lexsoft.de/cgi-bin/lexsoft/justizportal_nrw.cgi?t=173856409733572366&sessionID=1115941525955311841&chosenIndex=Dummy_nv_68&templateID=document&source=context&source=context&highlighting=off&xid=140067,2.
8. Исследования проблем аграрного права (по трудам О.Л.Дубовик и других профессоров)
9. Дубовик О.Л. Механизм действия экологического права (юридический и социологический аспекты). Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук. М., 1993.